



KREATIV KOMPETENSIYALAR VA ULARNING TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

PhD Musaxanova Gulnora Mavlyanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-0268-0292

gulnaramusahanova02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari yoritilgan. Shuningdek, "kompetentlik" tushunchasining mazmun-mohiyati, kompetensiya, kompetentlik tushunchalari va ularning tarkibiga kiruvchi komponentlar mazmunini aniqlash, talabaning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish darajasi, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda e'tiborli bo'lish, pedagogik kompetentlik va pedagogik kreativlik asoslari, kreativ o'qitish metodikasini maqsadli olib borish yo'llari, ta'lim va tarbiya jarayonini kompetentli yondashuv asosida olib borish lozimligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, mustaqil ta'lim, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kreativ kompetensiyalar, kreativlik, Hard skills, Soft skills.

ТВОРЧЕСКИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ИХ РОЛЬ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

PhD Мусаханова Гулнора Мавляновна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье описаны основы развития творческих компетенций студентов в процессе самостоятельного обучения. Также были обсуждены содержание понятия «компетентность», определение содержания понятий «компетентность», и их компонентов, уровень сформированности и развития творческих компетенций у студентов, внимание в развитии профессиональных компетенций будущих специалистов, основы педагогической компетентности и педагогического творчества, пути целенаправленной реализации творческой методики обучения, необходимость ведения учебно-воспитательного процесса на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: цифровизация образования, самостоятельное образование, компетентность, профессиональная компетентность, творческие компетенции, креативность, Hard skills, Soft skills.

CREATIVE COMPETENCES AND THEIR ROLE IN ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS

*PhD Musakhanova Gulnora Mavlyanovna
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article describes the basics of developing creative competencies of students in the process of independent learning. The content of the concept of "competence", competence and their components, the level of formation and development of creative competencies of the student, attention in the development of professional competencies of future specialists, the basics of pedagogical competence and pedagogical creativity, ways of targeted implementation of creative teaching methods, the need for conduct the educational process based on a competence-based approach were also discussed.*

Keywords: *digitalization of education, independent education, competence, professional competence, creative competencies, creativity, Hard skills, Soft skills.*

Kirish.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy ta'limda ta'lim ishtirokchilarining kreativ kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi ta'limni rivojlantirishning mavjud holati bilan belgilanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni, ommaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini keng joriy etilishi ularni o'quv jarayonini sifati, ta'lim beruvchining ilmiy-pedagogik imkoniyatlariga, ta'lim oluvchining esa bilimlarni o'zlashtirish hamda mutaxassislikni egallash darajasiga ta'sir qilmoqda.

Iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni jadal sur'atlar bilan kirib kelishi, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgaruvchan masalalarning ko'pligi va ularga tezlikda yechimlar topishning zarurligi jamiyatni axborotlar bilan to'yintirmoqda, insonlarni esa kasbiy kompetensiyalarini o'zgartirmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarini kreativ innovatsiyalar bilan boyitilayotganligi korxonalar va tashkilotlar faoliyatlarini muhit bo'g'irligidan asta sekin erkin – ijodiy muhitga o'tkazmoqda, har qanday ishni kreativ tarzda amalga oshirishni talab qilmoqda, ish jarayonida yosh mutaxassislarining ijodiy g'oya va fikrlarini e'tiborga olmoqda. Ammo shu bilan bir qatorda borgan sari matbuotda va pedagogikada "soxta kompetensiya" tushunchasi paydo bo'lmoqda, chunki turli manbalardan osongina olinadigan ma'lumotlarni o'zlashtirish (plagiatlik, g'oyalarni o'g'irlash va xokazo) kasbiy kompetensiyaga tenglashtirilmoqda va bilimlarni o'zlashtirish darajasi esa bilimlarning turli sohalarida yuzaki egallash bilan almashtirilmoqda. Bularning bari bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda e'tiborli bo'lishni, kompetentlikning nazariy va amaliy asoslarini puxta egallashni, ta'lim va tarbiya jarayonini kompetentli yondashuv asosida olib borish lozimligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining metodlari va metodikasida, birinchi navbatda ta'lim ishtirokchilarining kreativliklarini ochib berish uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladigan auditoriyadan tashqari ta'lim beruvchining rahbarligidagi mashg'ulotlarda, hamda ta'lim oluvchining individual mustaqil ishlarida modifikatsiyalashgan mazmun, yangi texnologiyalar, innovatsiyalarni izlash zarurligini ta'kidlaydi. Kreativ innovatsion g'oyaga ega mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lgani uchun ushbu vazifaga faqatgina kreativ o'qitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin; bunda ta'lim oluvchiga yangi bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi, mavjud muammolarga o'ziga xos original yechim topa bilish va amaliyotga samarali tadbiriq etishiga imkon berilishi lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim beruvchilarning, ayniqsa pedagogik kadrlarni tayyorlovchilarning pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari, uning mohiyati va zaruriyati, professional va o'rta ta'limda turli fanlar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik va kreativlikni shakllantirish masalalari va muammolarini yurtimiz pedagog olimlari o'z tadqiqotlarida aniq yoritib berishgan.

Pedagog olim Muslimov (2021) boshchiligidagi tadqiqotchilar pedagogik kompetentlik va pedagogik kreativlik asoslari, hamda bo'lajak professional o'qituvchilarning kasbiy professionalligini shakllantirish bo'yicha qator izlanishlar olib borishgan. Muslimov (2021) o'z asarlarida "kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalar mohiyatini aniq ifodalab bergan.

Mohiyatiga ko'ra *Kompetentlik* (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini bildiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jaraenlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi (Muslimov va boshq., 2021).

Kasbiy kompetentlik tushunchasi esa – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha umumlashtirilgan bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi (Muslimov va boshq., 2021).

Pedagogik kompetentlik negizini ham kasbiy kompetentlik sifatlari tashkil etadi. Bir qator tadqiqotlarda xususan A.K.Markova, B.Nazarovalar izlanishlarida pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning tarkibiy asoslari va xususiyatlari o'rganilgan.

Pedagog tadqiqotchi Rahimov (2019) ilmiy izlanishlari natijasida pedagogning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogik kompetentlik va uning zaruriyati masalalarini hamda kasbiy kompetentlik sifatlari va mohiyatini asoslab bergan.

Pedagog olim Musurmonova (2020) ta'lim-tarbiya nazariyasiga bog'liq o'z darsligida pedagogik kompetentlik masalalari, ayniqsa o'qituvchilarning fanlar bo'yicha kompetentlikka ega bo'lishligini aloxida ko'rsatib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida pedagogik kompetentlik (loyiqlik) bilan bir qatorda pedagogik kreativlik (ijodkorlik) degan tushuncha pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi taxlil qilingan. Berilgan nazariy ma'lumotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, pedagogning o'z kasbiga kompetentligi uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qay darajada o'zlashtirib olgani, pedagogik mahorati, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq masalalarni qanchalik hal eta olish kabi pedagogik qobiliyati bilan belgilanishi qiyosiy taxlil qilingan.

Mavzuni o'rganish jarayonida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil kilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Pedagogning kreativligi esa uning zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, fanlar bo'yicha nazariya va amaliyotni birlashtirish, o'qitishning yangi usul va vositalarini yaratish, o'z bilim va mahoratini oshirish bo'yicha doimiy ravishda ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va joriy etish kabi *ijodkorlik qobiliyati* bilan belgilanadi.

"Kreativlik" tushunchasi va uning kasbiy faoliyatdagi o'rnini aniqlashda bir necha yondashuvlarni ko'rish mumkin. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarini mohiyati, sifatlari, belgilari, shaxsda kreativlikni rivojlantirish omillari Muslimov (2015) maktabining tadqiqotchilari tomonidan ko'rsatib berilgan.

Mohiyatiga ko'ra, *kreativlik* (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayòrlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi *ijodiy qobiliyati* ma'nosini bildiradi. Shaxsning kreativligi uning dunyoqarashi, so'zlashishi, berayotgan fikrlari va qarashlarida, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik har sohada qobiliyatlilik, zehni o'tkirlikni ko'rsatib beradi (Muslimov, Ishmuxamedov, 2021).

Kreativlik turli vaziyatlarda ta'lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi (Hakimova, 2020). Pedagogning ijodkorligi uning ta'limni tashkil etishga *ijodiy (kreativ) yondashuvida* aks etadi. Shuning uchun so'nggi yillarda ta'limda "pedagogik kreativlik" degan tushuncha ishlatilmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgaligini tavsiflovchi qobiliyatidir. Pedagogning kreativligi qay darajada ekanligi pedagogning *kreativlik potentsiali* nomli umumiy hususiyati sifatida aks etadi. Ushbu sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorgarlikni ifodalaydi (Muslimov, 2015).

Rossiya pedagog olimlaridan Kashapova, Kiseleva, Ogorodovlar (2013) nazariy tuzilmalar va g'oyalar bilan amaliy takliflar orasidagi aloqadorliklarini tadqiq qilish asosida pedagogning kasbiy kreativligini shakllantirish jarayonini nazariy metodologik asoslarini, kasbiy kreativlikni sifatlari va funksional vazifalarini, shakllantirish kriteriyasi va darajasini, kreativlikni samarali shakllantirish tamoyillarini, usullari va sharoitlarini aniqlab berishgan.

Bryakova (2019) pedagogning kreativ kompetensiyasi, talaba-filolog adabiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish omili ekanligini, ayniqsa ta'limni raqamlashtirish davrida pedagogning kreativ kompetentligi – bu ta'limni yangi vektori ekanligini ko'rsatib bergan.

Hozirgi vaqtda kompetensiya, kompetentlik tushunchalari va ularning tarkibiga kiruvchi komponentlar mazmunini aniqlash, faoliyatning tuli sohalarida ularni shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo'yicha ko'p tadqiqot materiallari to'plangan. Bu esa ularni klassifikatsiyalash (tasniflash) masalalariga ahamiyat berish lozimligini yuzaga keltirdi.

Kompetensiya, kompetentlik, kreativlik tushunchalariga bag'ishlangan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tadqiqotlar tahlili yana shuni ko'rsatadiki, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagog tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan bo'lsa ham bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan *islohotlarni o'tkazish* ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kreativligini shakllantirishning, ayniqsa ta'lim oluvchilarning o'z mutaxassisliklarini egallashida ijodiy va tanqidiy munosabatda bo'lishning yangi faoliyat usullari va fikrlash modellarini ishlab chiqish zarurligini nazarda tutadigan *pedagogik strategiya chizig'ini (yo'l xaritasi)* yaratish kerakligini talab qilmoqda.

Talabanning kreativligi amalga oshiriladigan tadbirlar samaradorligiga yordam beradi. Bu kreativlik insonning nafaqat o'z ishini sifatli bajarishi, balki yangi imkoniyatlarni izlash va

ularni hamyonbop narxlarda amalga oshirishiga qiziqishi bilan belgilanadi; u har qanday vaziyatda tezda nostandart qarorlarni qabul qilishga va har qanday faoliyatni tashkil etish va bajarishga ko'proq kuch va ishtiyoq bilan yondashishga qodir. Shuni ta'kidlash kerakki, kreativlik nafaqat amalga oshiriladigan faoliyatga, balki talabalarning o'z shaxsiyatlarini rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Kreativlik o'zini-o'zi anglash, takomillashtirish va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib, kar'era bosqichlaridan ko'tarilishga olib keladi.

Demak, talabaning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning kasbiy-ijodiy faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodologiyasini yaratish uchun avvalo "kompetensiya" va "kreativ kompetensiya" tushunchalariga va ularning mazmun- mohiyatiga aniqlik kiritish lozim.

Kompetensiya (lot. "competentia") tushunchasi – ega bo'lgan, biladigan, xabardor bo'lgan, munosib, loyiq kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati esa biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilim va qobiliyatga ega bo'lgani uchun ham asosli fikr yuritadigan, samarali faoliyat olib boradigan *shaxsning sifatidir*. Biror sohada bunday sifatlarga ega bo'lgan shaxslar o'sha soha bo'yicha "*kompetentlilik*"ga ega hisoblanadi va ular o'z sohalarida islohotlar o'tkazishda yetakchilik qila oladilar.

Ta'lim sohasida "kompetensiya" ta'lim oluvchilar tomonidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kabi *sifatlarni* bildiradi, "*kompetentlilik*" esa ushbu *sifatlarni egallaganlik darajasini* belgilash uchun qo'llaniladi. Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, milliy qadriyatlardan g'ururlanishi), uning eskirgan moddiy va ma'naviy qarashlarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini aynan ta'lim ishtirokchilarining kompetentligini, ayniqsa ta'lim oluvchilarga zarur bo'lgan tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini shakllantirish va rivojlantirish bilan, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini *kompetentli yondashuv* asosida ta'minlash mumkin.

Shuning uchun dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetentli yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayoniga kompetentli yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratishda alohida o'rin egallagan (Loyko, 2015).

Muslimov (2015) rahbarligida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuada ta'lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ikki xil: "Hard skills - (ingliz. "qattiq" malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda "Soft skills" - (ingliz. "yumshoq", "moslashuvchan" malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar joriy qilish taklifi keltirilgan.

Ma'no-mohiyatiga ko'ra "Hard skills" - malaka darajasini aniqlash va o'lchash mumkin bo'lgan bilimlar majmui sifatida (matnni kompyuterda terish malakasi, avtomobilni boshqarish ko'nikmasi, ingliz tilida gapirish, matematik bilim, kompyuter dasturlaridan foydalanish ko'nikmasi), "Soft skills" aniq va umumiy o'lchov birligiga ega bo'lmagan moslashuvchan, egiluvchan malakalar (kreativlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, hissiy barqarorlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va h.k.) sifatida qayd etilmoqda.

"Hard skills" - "qattiq" malaka darajasiga ega bo'lish uchun muayyan kasb bo'yicha aniq bilim zarur bo'ladi va bu ko'nikmalarning mavjudligi imtihon o'tkazish orqali aniqlanadi.

"Soft skills" - "yumshoq" kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.k.) esa ko'p hollarda inson

xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

Mazmuniga ko'ra "Hard skills" kompetensiyalar ta'lim tizimidagi maxsus (kasbiy), "Soft skills" kompetensiyalar esa ta'lim tizimidagi tayanch kompetensiyalarni anglatadi.

XXI asrga qadar ta'lim tizimida yoshlarga asosan "hard skills" – "qattiq" malaka darajasini berishga e'tibor qaratib kelindi. Ya'ni, muayyan kasbni puxta egallash, uning sir-asrorlarini to'liq o'zlashtirish – shaxsning yetuk mutaxassis ekanligini belgilovchi asosiy faktor sifatida qayd etilgan.

XXI asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi, endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo'lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Pedagog olim Musurmonova (2020) yaratgan darsligida kasbiy kompetensiyalar, pedagogning kasbiy kompetensiyalari, fanlar bo'yicha umumiy fanlar bo'yicha maxsus kompetensiyalar, ularning tasnif va ta'riflari, ularni ta'lim ishtirokchilarida shakllantirish bosqichlari va pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlarini asoslab bergan. Darslikda jahon ta'lim amaliyotida keltirib o'tilgan quyidagi muhim kompetensiyalar belgilab berilgan:

- turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan *bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar*;

- *ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish);

- *mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar* (mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyushtirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- *maishiy sohadagi kompetensiyalar* (oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

- *madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish).

«Muhim kompetensiyalar» tushunchasi chet el olimlari tomonidan taqdim etilgan ko'plab zamonaviy modellar asosida yotadi. «Muhim kompetensiyalar» insonning egallagan ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash, shuningdek, amallarni bajarishning umumlashgan usullaridan foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib, oliy ta'limda kredit- modul tizimiga o'tish va ushbu tizim o'qish jarayonida mustaqil ta'limga keng o'rin berish talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy omilidir. Talabalarni mustaqil ishlashi ularning har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltiramiz:

Birinchidan, kompetensiya – bu shaxsning biror soha bo'yicha sifatli va samarali faoliyat olib borishi uchun zaruriy bilim va ko'nikmalar majmuasini belgilasa, kompetentlik shaxsning ushbu ko'nikmalarni egallaganlik darajasini, ya'ni foydalanish qobiliyatini belgilaydi.

Ikkinchidan, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga umumiy holda aniqliklar kiritilgan bo'lsa ham tadqiqotchilar tomonidan bir hil tahlil etilmagan. Bu esa zamonaviy shaxs ko'nikmalariga qo'yilayotgan talablar asosida kompetensiyalarni chuqurroq o'rganishni, ularni klassifikatsiyalash (tasniflash) ni va rivojlantirish usullarini yaratishni taqazo etadi.

Uchinchidan, mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda yangi jamiyatni yaratuvchi talabalarda ijodkorlik va izlanuvchanlik, nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olish, turli jarayonlarni tahlil qilish va baholash,

ta'lim olish va tadqiqotchilik qilish, xorijiy tillarni egallash va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kabi aqliy va amaliy faoliyatda o'zining individual uslublariga ega bo'lish imkonini beradigan mustaqil ishlashni tashkillashtirish va muhim kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini yaratish lozim.

To'rtinchidan, kreativ kompetensiyalarni sifatlari va ularni rivojlantirishga oid fikrlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish zaruriyati, zaruriy komponentlar va ular orasidagi aloqadorlik, kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish usullari hamda vositalari kabi masalalar to'liq yoritilmagan.

Beshinchidan, tahlil va izlanishlar natijasida talabalaridagi kreativ kompetensiyalarning bir-biriga bog'liq komponentlari aniqlab berildi hamda ta'limning kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishlashi va kreativ fikrlashini samarali tashkil etish lozimligi ko'rsatildi.

Adabiyotlar / Literature / Reference:

Akbarova S. (2022) *SOME ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF INDEPENDENT STUDENTS* //Архив научных исследований. – Т. 3. – №. 1.

Akbarova S. (2022) *Ta'limni raqamlashtirish davrida talabalarni mustaqil ta'limni tashkil qilish* //Архив научных исследований. –Т. 2. – №. 1.

Bryakova I.Ye. (2019) *Kreativnaya kompetentnost pedagoga – novyy vektor razvitiya obrazovaniya* //Pedagogicheskiy imidj. – №. 3 (44).

Hakimova M. (2020) *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot* //Архив научных исследований. -№. 32.

Kashapova M.M., Kiselevoy T.G., Ogorodovoy T.V. (2013) *Kreativnost kak klyuchevaya kompetentnost pedagoga. Monografiya / Pod red. prof. M.M. Kashapova, dos. T.G. Kiselevoy, dos. T.V. Ogorodovoy. Yaroslavl: IPK «Indigo», – 392 s.*

Loyko A.I. (2015) *Formirovanie navykov kreativnogo myshleniya u studentov pri izuchenii filosofii, logiki : konspekt leksiy dlya studentov vsekh spetsialnostey / A. I. Loyko [i dr.] ; pod obsh. red. A. I. Loyko. – Minsk: BNTU, – 80 s.*

Muslimov N.A va boshqalar (2015) *Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", –120 b.*

Muslimov N.A., Ishmuxamedov R.J., To'raev A.B. (2021) *"Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –T., –108.*

Musurmonova O. [va boshq.] (2020). *Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, - 376 b.*

Raximov Z.T. (2019) *Ta'lim jaraeni samaradorligini ta'minlashda pedagogik kreativlik va uning zaruriyati* //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – №. 8 (81). – S. 3-

Muxaxanova G.M. (2022) *"Кейс-стади" технологияси талабаларнинг мустақил таълим жараёнида ташкилотчилик қобилиятини ривожлантирувчи инновацион метод сифатида* //Архив научных исследований. – Т. 2. – №. 1.

Muxaxanova G.M. (2022) *Направления развития навыков самостоятельного обучения студентов в условиях цифровизации экономики. Международный журнал исследований и обзоров социальных наук, 5(1), 64- 67. <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i1.160/>*